



BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA RASM ASOSIDA HIKOYA QILISH MASHQLARI KREATIVLIKNI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Niyozmatova U.

O‘zbekiston tumani, 67-maktab o‘qituvchisi

Isaqov Z.

Qo‘qon DPI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Tayanch so‘zlar: 4K tamoyili, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik fikrlash, bayon, ijodiy bayon, kreativlik.

Ключевые слова: принцип 4К, сотрудничество, коммуникативное, творческое мышление, критическое мышление, высказывание, творческое высказывание, творчество.

Key words: 4K principle, cooperation, communication, creative thinking, critical thinking, expression, creative expression, creativity.

Резюме:

Maqolada boshlang‘ich sinf “Ona tili” darsliklarining zamonaviy talablar asosida yaratilganligi tahlil qilinadi. Ona tili darslarida rasm asosida hikoya qilish mashqlarini bajarish orqali mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning kreativligini oshirishning dolzarb metodlari yuzasidan amaliy tavsiyalar beriladi.

Резюме:

В статье анализируется создание учебников «Родной язык» начального класса с учетом современных требований. Даны практические рекомендации по актуальным методам повышения творческой активности учащихся на занятиях путем выполнения упражнений по рассказыванию историй по картинкам на занятиях родного языка.

Summary:

The article analyzes the creation of textbooks "Native Language" for primary school taking into account modern requirements. Practical recommendations are given on current methods of increasing students' creative activity in the classroom by performing exercises on telling stories from pictures in native language classes.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimining 4K tamoyiliga asoslanganligi hech kimga sir emas, albatta. Bu degani ta’lim faqat maktab, imtihonlar va yoki fan-texnika rivoji uchun emas, balki, inson uchun, uning hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ham xizmat qilishini anglatadi[5,201]. Quruq yodlash, o‘qib-yozish, bir so‘z bilan aytganda, olingan



bilimlarning faqat nazariyada qolib ketishi “o‘zini oqlamagan” tizim sifatida bugungi ta’lim lug‘atidan chiqib ketayotgan tushunchalardir.

PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallagan davlatlar ta’limida o‘quvchilarda “4K” modelini o‘z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko‘nikmalarga alohida urg‘u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti.

Mamlakatimizda maktab o‘quvchilari uchun 4K tamoyiliga asoslangan yangi avlod darsliklarining amaliyotga kiritilishi ham xuddi shu maqsadlarni ko‘zlagan bo‘lib, bunda asosiy e‘tibor har bir o‘quvchi uchun maktabda olingan bilimlarning hayot maktabida ham o‘rni va manfaati bo‘lishiga qaratilgan. Qolaversa, har bir o‘rganilgan material o‘quvchilar dunyoqarashini oshirishga, kreativ va mantiqiy fikrlash ko‘lamini kengayishiga asos bo‘lishi kerak.

Avvalo, 4K tamoyili mohiyatini ochiqlab olsak. 4K yondashuvi o‘z nomi bilan 4 ta tamoyilni o‘z ichiga oladi:

Kollaboratsiya: Darsliklar o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o‘quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishga ko‘maklashadi.

Kommunikativlik: O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o‘rganadi.

Kreativ fikrlash: O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: Ushbu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o‘rganadi, mantiqiy fikrlash nuqtayi nazarini shakllantiradi.

“4K” modeliga asoslangan innovatsion yondashuv maktablarda qo‘llash uchun alohida sharoitlar talab etmaydi. Masalan, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar bilan, muloqot ko‘nikmasi esa savol-javoblar va mashg‘ulotlar orqali rivojlanadi.

Shuningdek, zamonaviy ta’limdan kutilayotgan eng asosiy natija bu bolalardagi yangilik yaratish va ijodkorlik sifatlarini qo‘llab-quvvatlash orqali kreativ fikrlash qobiliyatlarini oshirishdan iborat. Bu natijaga erishishda esa, boshlang‘ich sinf ona tili darsliklarida berilgan rasm asosida hikoya qilish mashqlari alohida ahamiyatga ega.



Rasm asosida hikoya tuzish nafaqat bugungi kunda balki, o'tgan asrlarda ham pedagoglar tomonidan eng ko'p murojaat qilingan metodlar toifasiga kirgan. Buni biz 1990-yil nashr etilgan Fred Ligon, Elizabet Tannenbaum va Carol Richardson Rodgers tomonidan yaratilgan "Picture stories" kitobi[8] orqali ham bilishimiz mumkin. Bu kitob ingliz tilini bilmaydigan yoki endi o'rganuvchilar uchun ham manfaatli bo'lib, unda rasm asosida hikoya qilish orqali o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish va ularda kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish asosiy maqsad qilib olingan. Bundan tashqari, Stiv Boukett tomonidan yaratilgan "Developing literacy and creative writing through storymaking" kitobida[9] ham bolalarda savodxonlik va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rasm asosida hikoya tuzish orqali oshirish yo'llari belgilab berilgan.

Darslik va o'quv qo'llanmalardan tashqari siz bu haqida turli ijtimoiy tarmoq saytlaridan ham kerakli ma'lumotlarni topishingiz mumkin. Birgina www.pinterest.co.uk sayti[10]ga 2024-yil yarmiga qadar 740 ta rasm asosida hikoya tuzishga mo'ljallangan suratlar joylangan bo'lib, bu ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari tomonidan eng ko'p yuklangan ma'lumot sifatida qabul qilingan.

O'zbekistonda ham rasm asosida hikoya qilishning metodologik asoslari chuqur bo'lmasa-da, ko'p o'rganilgan sohalar qatoriga kiradi. Jumladan, JDPI katta o'qituvchisi, (PhD) Shohida Siddiqovanning "Boshlang'ich sinflarda rasm asosida matn tuzish[7]" mavzusi bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borganini ko'rishimiz mumkin.

Rasm asosida matn yaratish mashqlari maktabgacha yoshdan boshlanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar hali o'qish-yozishni bilmasdan turib, rasm asosida tarbiyachi yordamida og'zaki hikoyalar tuzadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishdir.

Maktab miqyosida esa bu metod nisbatan kam ishlatiladigan metod bo'lib, ko'pgina yangilanishlarga muhtoj. Agar ushbu mashq turlaridan katta yoshli o'quvchilar o'rtasida ham amalda ko'proq foydalanilsa, bolalarning umumiy rivojlanishi uchun ayni muddao bo'lardi.

Quyida rasm asosida hikoya tuzishga oid topshiriqlar mazmun-mohiyati, amalga oshirish bosqichlari va amaliy ahamiyati haqida so'z yuritamiz.

Bolalarni hikoya qilishga o'rgatish uchun narsa-buyumlarni tasvirlovchi predmetli rasmlardan, sujetli rasmlardan, reproduksiyalardan, peysaj va naturmort, etud rasmlardan foydalaniladi. M.M.Konina bolalarni rasmlarga qarab hikoya qilishga o'rgatishning quyidagi mashg'ulot turlarini ajratib ko'rsatadi[6]:



- 1) narsa-buyumlarlarni tasvirlovchi rasmlar bo'yicha tasviriy hikoya tuzish;
- 2) voqeaband rasmlar bo'yicha tasviriy hikoya tuzish;
- 3) voqealar ketma-ket keladigan rasmlar to'plami asosida hikoya tuzish;
- 4) peyzajli (manzarali), naturmort rasmlar bo'yicha tasviriy hikoya tuzish.

Rasm asosida hikoya qilishda oltin qoida – bu “Nima? Qachon? Qayerda? Nima uchun?” kabi savollariga javob topish.

Rasmga asoslanib, hikoya qilish bu kreativ jarayon bo'lib, unda o'quvchi tasvirga o'z so'zlari orqali jon kiritadi. Ushbu jarayonda o'quvchilar quyidagilarga e'tibor qaratishi talab etiladi:

Rasmni diqqat bilan kuzatish. Har bir detal, qahramon, makon va zamon elementlari va rasmdan anglashilib turgan hissiyotni o'rganing.

Asosiy g'oya, qarama-qarshilik va rasm yetkazmoqchi bo'lgan xabarni aniqlash. Bu sizga umumiy syujet va yo'nalishni shakllantirishga yordam beradi.

Obrazlarni jonlantirish. Rasmda berilgan shaxslar yoki jonzotlar shaxsiyati, kayfiyati va tarixi haqida tasavvur hosil qiling. Ularni qog'ozda jonlantiring.

Voqea sodir bo'layotgan joy, vaqt va atrof-muhitga oid holatni tasvirlang.

Hodisalar ketma-ketligini tartiblash. Rasmga bog'liq holda hikoyaning kirish, o'rta va tugallanish qismlarini ishlab chiqing.

Hissiy tafsilotlarni qo'shish. Tovush, hid va boshqa hissiy tafsilotlar orqali o'quvchini hikoya olamiga olib kirish yanada osonlashadi.

Aytma, ko'rsat! O'quvchiga nima bo'layotganini birma-bir aytmadan ko'rsating.

Rasmlar ma'lumotni yozma yoki og'zaki asarga samarali aylantirganingizga ishonch hosil qilish uchun qayta ko'rib chiqing, kerakli joylarini qayta tahrirlang.

Kitob o'qish yoki televizor ko'rish imkoniyati berilgan har bir bola, albatta, ko'rish orqali o'rganishni tanlaydi. Sahifalardagi so'z qudrati cheksiz, albatta, lekin kichik yoshdagi bolalar uchun visual ma'lumotlar tasavvurlarini boyitishga ko'proq xizmat qiladi. Bir rasm o'zida minglab so'zlarni aks ettira oladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun 2023-yil “Novda” nashriyoti tomonidan nashr etilgan umumta'lim maktablari uchun darsliklar[1;2;3;4] jahon standartlariga to'la mos ravishda “4K” modeliga asoslangan holda yaratilgan bo'lib, undagi mavzular doirasi avvalgi darsliklardan tubdan farq qiladi. Xususan, boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida nafaqat o'quvchilar tilshunoslik tushunchalarini balki, yoshiga mos ravishda mavzuga yaqin yondosh mavzularni integratsiyalashgan tizim orqali ham o'rganib boradi. Bu



boshlang‘ich sinflarda berilayotgan bilimlarning tartibli, izchil, yaxlit bo‘lishiga va o‘quvchi tasavvurida bir butunlik kasb etishi bilan ahamiyatlidir.

Qolaversa, ona tili darsliklarida 4K tamoyili asosida rasimga oid matn yaratish mashqlarining ko‘pligi o‘quvchilar nutq madaniyatini oshirishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, 1-sinf ona tili darsliklarining har ikkala qismi bo‘yicha rasm asosida matn yaratish mashqlari 15 tani tashkil etadi. Sinf darsliklaridagi rasm asosida matn tuzish topshiriq quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Sinfi	1-qism	2-qism	3-qism	4-qism	Jami:
1-sinf	6	9	-	-	15
2-sinf	7	6	6	10	29
3-sinf	9	7	6	7	29
4-sinf	6	7	6	3	22
Jami:	95				

Rasm asosida yozma matn tuzish mashqlari 1-sinf ona tili darslaridan boshlangan bo‘lib, bu savod o‘rgatishdan keying davrga to‘g‘ri keladi. Savod o‘rgatish darslarida ham bu mashq turidan unumli foydalanish mumkin. Lekin bunda o‘quvchilar matnni faqat og‘zaki ravishda tuza oladi. Matn tuzish topshiriqlari 2 xil usulda berilishi mumkin: 1) bir rasm asosida; 2) voqealar ketma-ketligini ifodalovchi bir nechta rasm asosida.

Bir rasm asosida matn tuzish mashqlari ona tili kitobining ilk darslarida berilgan. Shartida aynan matn tuzing, deyilmagan bo‘lsa-da, “Rasmni ta’riflang”, “Rasm asosida gaplar tuzing” kabi jummalardan foydalanilgan.

1-sinf 1-qism ona tili darsligining “Matn tuzish” bo‘limi[1]da esa voqealar ketma-ketligiga asoslangan 4 ta mavzuda seriyali rasmlar berilgan bo‘lib, bunda o‘quvchilar matn tuzish bilan birga unga sarlavha topish va reja asosida matn yaratish haqida tushunchaga ega bo‘ladi.

Ona tili darsligining 2-sinf 4-qism[2] 79-sahifasida berilgan 13-mashq boshqa darsliklardagi topshiriqlardan ajralib turadi. Bu mashqning o‘ziga xosligi shundaki, o‘quvchilardan matn tuzish talab qilingan ushbu rasm oddiy emas, mashhur rassom Karavajoning “Mevalar solingan savatcha” nomli kartinasidir. Bu kabi san’at namunalarining darslikda berilishi va uni ta’riflash topshirig‘i bolalarda haqiqiy san’at asarlari namunalaridan bahramand bo‘lish va ularni tushunish imkonini beradi.

Bu mashq turlari barcha yoshdagi o‘quvchilar uchun mos keladi. Chunki u miyada yangiliklar yaratishga javob beruvchi qismlarni harakatga keltiradi. Misol uchun, agar darslikda biror ertak, hikoya yoki biror ilmiy-ommabop matn berilgan bo‘lsin. O‘quvchi u ma’lumotni tayyor holda qabul qiladi.



Talab etilsa, o'qiydi, yozadi hamda unga oid topshiriqlarni bajaradi. Izlanish va qayta ishlash talab etilmasdan olingan ma'lumot miyaning xotira qismidan vaqtinchaga joy oladi. Biroq shu matn yoki asarga oid rasm, voqealar ketma-ketligini aks ettiruvchi rasmlar seriyasi berilsa-chi? Bunda bir hikoyaning o'quvchilar nutqi va tasavvurida turli xil variantlari yaratiladi. O'quvchi rasmni izohlash va kerakli so'zlarni grammatik va mantiqiy to'g'ri bog'lab matn holiga keltirish uchun izlanadi, fikr yuritadi. Bir so'z bilan aytganda, o'quvchi o'ziga kerakli bilimga "mehnat qilib" erishadi.

Psixologlarning ta'kidlashicha, inson tafakkuri biror bir to'siqqa duch kelsagina ishlaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchiga beriladigan barcha bilimlar, ma'lumotlar tayyor holda bo'lmasdan, o'quvchini fikrlashga, yaratuvchanlikka undaydigan topshiriqlar orqali berilishi maqsadga muvofiqdir.

Xalqaro miqyosda o'tkazilgan tajribalardan birida mutaxassislar o'quvchilar qo'liga bir tasvir berib uni sharxlashni so'raydi. U surat qop-qora qog'oz va o'rtasida bitta oq nuqtadan iborat tasvir edi. Tajriba so'nggida shu ayon bo'ldiki, mutaxassislar qo'lida ushbu eksperimentda nechta o'quvchi qatnashgan bo'lsa, mazkur rasm yuzasidan shuncha xil fikrlarga to'la javob varaqalari paydo bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarimizdan ba'zi rivojlangan davlatlar bolalari kabi kreativ fikrlash, kashfiyotlar yaratishini kutishdan oldin, o'quv dasturimiz, darsliklarimiz va metodlarimiz safiga manashunday mustaqil fikrlashni talab qiladigan mashq turlarini ko'proq kiritishimiz, ularni to'g'ri fikrlashga emas, avvalo, fikrlashga o'rgatishimiz kerak!

Adabiyotlar:

1. Yuldasheva D.Sh. Ona tili. 1-sinf. I-IV qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023.
2. Kuranov S. Ona tili. 2-sinf. I-IV qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023.
3. Toirova M.E. Ona tili. 3-sinf. I-IV qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023.
4. Baynazarova D.D., Toirova M.E. Ona tili. 4-sinf. I-IV qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023.
5. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, – 2009. – 352 b.
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/nutq-va-uning-psixologik-jihatlati>
7. <https://jdpu.uz/mavzu-boshlangich-sinflarda-rasm-asosida-matn-tuzish/>
8. <https://www.ala.org/sites/default/files/advocacy/content/diversity/AmericanDreamBibliography.pdf>
9. https://www.google.ru/search?newwindow=1&sca_esv=4dbd1c17396be272&sxsrf=ADLYWI K6LTmEGQ87poTF-kRaNt3uKmgD-A:1728540387944&q
10. www.pinterest.co.uk